

KASB-HUNAR TA'LIMIDA FANLARNI O'QITILISHIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA UNING ROLI

Rahmatullayeva Shaxodat Mo'minjonovna
*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi Ta'lim ustasi*

Annotatsiya: *Kasb-hunar ta'limida fanlarni o'qitilishida o'qituvchining pedagogik mahorati va uning roli haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, pedagogik mahorat, kasb-hunar ta'lim.*

Bugun hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jamiyatning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish-bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Kasbga yo'naltirish - shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan shakllanish jarayonini o'taydi, ya'ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib boradi.

Kasb — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada mehnat faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta'minlangan mehnat faoliyati (mashg'uloti)ning turidir.

Kasb - hunar maktablarining afzalligi, bu yerda 2 yil davomida umumta'lim va mutaxassislik fanlari integratsiyalashgan dasturlari asosida o'qitiladi. O'quvchiga o'zi tanlagan kasb bo'yicha bilim beriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri-bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi.

Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning ma'suliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi.

Pedagog-ta'lim jarayonining loyihachisi, tashkilotchisi. U ta'lim jarayoni sub'ektlari

harakatlarining mazmuni va usullarini, harakatdagi shaxslarning asosiy pozitsiyalarini, bolalar bilan munosabatlarini aniq tasavvur eta olishi zarur, chunki bu bolalarning qobilyatlarini namoyon qilishga va rivojlantirishga olib kelishi lozim Fanlarni o'qitilishida o'qituvchi o'quvchilarda quyidagi sifatlarni rivojlantirishi lozim:

1. Mustaqil bajarishga qaratilgan harakatlarni rag'batlantirish;
2. O'quvchilarni maqsadga erishishidagi muvaffaqiyatga qiziqtirishni namoyish qilish;
3. Qiyin, lekin real maqsadlar qo'yishga undash;
4. Fikrlash va xulq-atvorning boshqa usullarini sinashga undash;
5. O'quvchilarni turli qobilyatlarini rivojlantiruvchi ishlarga jalb etish;
6. O'z tasavvurilari asosida tashabbus ko'rsatish uchun sharoit yaratish;
7. O'quvchilarga o'z ish natijalarini baholashning mezonlarini to'liq tushuntirish;
8. O'quvchilarga mustaqil o'qish va yangililik o'ylab topishni o'rgatish
9. O'quvchilar xato qilganlarida ularni qo'llab-quvvatlab, ularni tuzatish uchun yordam berish
10. Xar qanday bilimning nisbiyligini, u boshqa qadriyatlar, maqsadlar va fikrlash usullari bilan bog'liqligini, kim yaratganligini ko'rsatish.

Fanlarni o'qitishda zamonaviy o'qituvchining asosiy kompetensiyasi aslida qanday bo'lishi kerak. O'zining bilimidagi bo'shliqlarni bartaraf etgan holda, o'quvchilar bilan birga o'qiy olish;

O'quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishda yordam berish;

O'quvchilarni xar hil faoliyat turlarida kompetensiyalarida namoyish etishda ekspert

pozitsiyasini egallay olish va ularni tegishli mezonlar yordamida baxolash;

O'quvchilarga o'z yutuqlarini munosib baholash imkoniyatini beruvchi tizimdan foydalanish va uni takomillashtirish;

Tadqiqotchilik fikriga ega bo'lish, o'quvchilarning tadqiqotchilik ishlarini tashkil etish va ularga raxbarlik qilish;

O'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetentligini oshirish zaruriyati maktabga va pedagoglarga qo'yiladigan ijtimoiy talablarning o'sishi bilan asoslanadi. Maktabdagi psixologik xizmatning vazifasi o'qituvchilarga yordam berish, o'quv tarbiyaviy jarayonida shaxsning, jamoaning rivojlanishini o'rganish uchunsodda tashxis uslublarini egallashda, o'quvchilarning ruxiy rivojlanishlarida, ularning xulq-atvorlaridagi nuqsonlarni bartaraf etishda psixologiyaga suyanishga ko'maklashishdan iborat.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu mustaqil izlanuvchi, zamon talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun tarbiya asosiy o'chog'i maktab ekanligi, maktabda o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishda asosiy ko'makni o'qituvchining pedagogik mahorati asosiy rol o'ynaydi. Shunday ekan fanlarni o'zlashtirishda o'qituvchining pedagogik mahorati katta rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar maktabi o'quvchilari tayyorlashda taklif etilgan kasbiy kompetentlikni rivojlantirish daraja va vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Sh.O.Toshpulatova, M.Xidirov "Bo'lajak astronomiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va malakasini oshirish", "Astronomiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: muammo va yechimlar" Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari (2022- yil 17- may).

2.Avliyoqulova N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" Toshkent "Fan" nashriyoti 2001 yil

3.Kuznetova N.P. "O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talablarini amalga oshirish sharti sifatida" Toshkent "Mehnat" nashriyoti 2003 yil

4. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

6. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

7. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

8. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.